



**SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**SURXONDARYO VILOYATIDA ASOSIY KAPITALGA
O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR**

**2023- YIL
YANVAR-MART**

Asosiy kapitalga oʼzlashtirilgan investitsiyalar ***2023- yil yanvar-mart***

Jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi:
2 977,4 mlrd. soʼm

Oʼsish surʼati:
112,5 %

Asosiy kapitalga investitsiyalar

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan:
454,5 mlrd. soʼm

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan:
2 522,9 mlrd. soʼm

Joriy davrda 2 977,4 mlrd. soʼm asosiy kapitalga investitsiyalar oʼzlashtirilib, ularning 70,6 % jalb etilgan mablagʼlar hisobidan moliyalashtirilgan boʼlsa, korxona, tashkilot va aholining oʼz mablagʼlari hisobidan 29,4 % moliyalashtirildi.

Markazlashgan manbalari hisobidan:

Respublika byudjeti:
362,3 mlrd. soʼm

Suv taʼminoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamgʼarmasi:
12,5 mlrd. soʼm

OʼzR kafolati ostida xorijiy kreditlar:
79,7 mlrd. soʼm

Markazlashmagan manbalari hisobidan:

Aholi mablagʼlari :
434,4 mlrd. soʼm

Korxona mablagʼlari:
439,6 mlrd. soʼm


Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablagʼlari:
370,9 mlrd. soʼm

Toʼgʼridan-toʼgʼri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar:
1 278,0 mlrd. soʼm

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning katta qismi, ya'ni jami investitsiyalarning 42,9 % to'g'ridan - to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan. Shuningdek, korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari 14,8 %, aholi mablag'lari hisobidan 14,6 %, Respublika byudjeti 12,2 %, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari 12,4 %, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 2,7 % va suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 0,4 % asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar
(jami hajmdagi ulushi, % da)**





Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

	Mird. so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan, % da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	2 977,4	112,5	100,0
Respublika byudjeti	362,3	279,5	12,2
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	12,5	48,9	0,4
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar	79,7	55,9	2,7
Korxona mablag'lari	439,6	76,4	14,8
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	370,9	109,6	12,4
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	1 278,0	125,8	42,9
Aholi mablag'lari	434,4	103,4	14,6




Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

	Mlrd. so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	2 977,4	112,5	100,0
Termiz sh. <i>tumanlar</i>	743,4	167,7	25,0
Oltinsoy	55,2	53,3	1,8
Angor	88,9	92,4	3,0
Bandixon	66,3	131,3	2,2
Boysun	768,1	177,7	25,8
Denov	192,6	61,9	6,5
Jarqo'rg'on	149,3	70,2	5,0
Qiziriq	38,0	63,3	1,3
Qumqo'rg'on	78,3	60,5	2,6
Muzrabot	58,0	98,2	1,9
Sariosiyo	210,7	102,3	7,1
Termiz	245,7	100,3	8,2
Uzun	103,5	134,9	3,5
Sherobod	112,2	90,6	3,8
Sho'rchi	67,2	66,9	2,3


Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'atlari, % da



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning shahar va tumanlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Boysun tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 177,7 %, Bandixon tumanida 131,3 %, Uzun tumanida 134,9 %, Sariosiyo tumanida 102,3 %, Termiz tumanida 100,3 %, Angor tumanida 92,4 % va Termiz shahrida 167,7 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar



jamiga nisbatan, % da


Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning hajmi bo'yicha hududlar kesimida Boysun tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 25,8 % o'zlashtirildi.

Shuningdek Boysun tumanidan keyingi o'rinda Termiz shahri – 25,0 % ni tashkil etmoqda.

Termiz tumani va Sariosiyo tumanlarida ushbu ko'rsatkich mos ravishda – 8,2 % va 7,1 % ni tashkil etdi.

Denov hamda Jarqo'rg'on tumanlarida investitsiyalarning viloyatdagi ulushi – 6,5 % va 5,0 % ni tashkil etgan bo'lisa, Oltinsoy tumanida bu ko'rsatkich bo'yicha eng kami bo'ldi – 1,8 %.


Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha – 1 861,4 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar – 761,9 mlrd. so'm va boshqa xarajatlarga – 354,1 mlrd. so'm o'zlashtirildi.



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jamiga nisbatan, % da)




Joriy davrda ham asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi – 1 866,1 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 62,7 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar – 722,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatda jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 24,3 % ini tashkil etdi. Qolgan 13,0 %, yani – 388,9 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



jamiga nisbatan, % da

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida tog'-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan – 676,7 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 22,7 % o'zlashtirilgan.

Qayta ishslash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan 2 faoliyat turi quyidagilar:

- Oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish - 64,1 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 2,3 %);
- to'qimachilik mahsulotlari va kiyim kechak ishlab chiqarish – 116,3 mlrd. so'm (3,9 %);

Tashish va saqlashda – 342,7 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 11,5 % o'zlashtirildi.




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar



mlrd. so'm

	Jami xorijiy investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		
		To'g'ridan – to'g'ri investitsiyalar	O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
Surxondaryo	1357,7	998,2	79,7	279,8
Termiz sh. tumanlar:	173,4	37,4	38,0	98,0
Oltinsoy	1,1	-	-	1,1
Angor	26,1	26,1	-	-
Bandixon	30,1	25,0	-	5,1
Boysun	720,1	720,1	-	-
Denov	57,8	5,7	-	52,1
Jarqo'rg'on	34,3	0,3	0,7	33,3
Qiziriq	4,3	-	-	4,3
Qumqo'rg'on	17,0	-	-	17,0
Muzrabot	7,9	2,2	5,7	-
Sariosiyo	80,7	45,4	35,3	-
Termiz	71,9	11,3	-	60,6
Uzun	53,2	51,0	-	2,2
Sherobod	40,1	34,0	-	6,1
Sho'rchi	39,7	39,7	-	-

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar




Joriy davrda ham asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlarning katta qismi tog'-kon sanoati o'zlashtirilib, u 668,1 mlrd. so'mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida 49,2 % ni tashkil etdi.

Hajm jihatidan keyingi o'rinni qayta ishslash sanoati egallagan. Ushbu faoliyat turi bo'yicha – 232,0 mlrd. so'm yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 17,1 % o'zlashtirildi.

Qishloq xo'jaligi faoliyati bo'yicha – 129,6 mlrd. so'm, tashish va saqlash faoliyati bo'yicha – 14,6 mlrd. so'm xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan.

Foydalanishga topshirilgan turar joylar



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 293,5 ming kv.m bo'lgan 1596 ta turar joy obyekti yangi qurilib, ulardan umumiy maydoni 231,9 ming kv.m bo'lgan 1282 tasi qishloq joylashgan.

Turar joylarning hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'pi Sariosyo tumanida ishga tushirilgan 49,1 ming kv.m va u viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 16,7 % ini tashkil etdi. Keyingi o'rnlarda Denov va Termiz tumanlari egallagan bo'lib, viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 15,1 % va 10,3 % ini tashkil etishgan.

Eng kam turar joy Oltinsoy tumanida ishga tushirilgan bo'lib, uning ulushi 1,8 % ni tashkil etdi.



Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni:

(76) 225-65-59